



**TOSHKENT
ARXITEKTURA-QURILISH
INSTITUTI**



Mavzu: Instalyatsion loyihalar. Ularning vazifalari va psixologik ta'siri. Vizual ijodkorlik va atrof-muhit. Nur va soya grafikasi.

Professor M.R. Borodina



Badiiy instalyatsiya – bu zamonaviy san'atning shakli bo'lib, u turli xil tayyor materiallar va shakllardan yaratilgan, muhitni to'ldiruvchi hajmiy-fazoviy, badiiy kompozitsiyadir.

Badiiy instalyatsiya san'atning ko'pgina turlaridan ta'sirchan elementlarini o'z ichiga qamrab oladi. Turli xil ajoyib kombinatsiyalarga kirgan holda, u nafaqat amaliy vazifalarni, balki ramziy vazifani ham bajaradi.

Bugungi kunda instalyatsiyalar shahar muhitining eng akralmas qismidir

Zamonaviy instalyatsiyalar har qanday material yoki texnologiyaga "jozibali" reklama xususiyatini taqdim etishi mumkin.

Misol uchun, Milanda o'tkazilgan "Salone Internazionale del Mobile" mebel ko'rgazmasi doirasida Whirlpool brendi "aqlli" texnologiyalar sohasida so'nggi ishlanmalarni taqdim etdi va hamkorlar bilan o'zaro raqamli davr va inson munosabatlarini mustahkamlash mavzusini muhokama qildi.





U vaqt, makon va insoniy munosabatlar tushunchalarini birlashtirdi. Shu bilan birga, makon aqlli va bo'shashgan organizm sifatida taqdim etildi. Har bir mehmon u orqali o'tib, joy va o'tkazilgan vaqt ularning idrokini qanday o'zgartirganini his qilishlari mumkin edi. Instalyatsiya bosh markazda inson omili turuvchi dizayn yechimi orqali ularning ta'limoti, qarashlari va yoshidan qat'i nazar, odamlarni qanday qilib yaqinlashtirishi mumkinligini aniq ko'rsatib bera oldi.



Instalyatsiyalar XX asrda, rassomlar sara ijod namunalarining "takrorlanishi" va san'atning tobora "hunarmandchilik"ga aylanayotganiga e'tibor qaratganlaridan so'ng paydo bo'ldi va rivojlanishni boshladi.


Shundan keyin innovatsion fikr va birlamchi materiallar yordamida darhol yangi san'at asarini yaratish g'oyasi paydo bo'ldi - bu yana takrorlanmasligi mumkin bo'lgan ijod bo'lishi kerak edi. Natijada, XX asrning oxirida instalyatsiya san'at sohasida muvaffaqiyatga erishdi va yangi ijodiy hamda me'moriy yo'nalishga aylandi.





Suratda: Julien Saloning yorug'lik instalyatsiyasi

Parijdagi Dizayn muzeyida fransuz rassomi Julien Salo o‘zining so‘nggi ijod namunasi, yorug‘lk ta‘sirida nurlanuvchi floresan bo‘yoq qatlami bilan qoplangan, nozik metall iplar yordamida hayvonlarning tasviri va mavhum naqshlarning o‘zaro bog‘liqligini o‘z ichiga olgan original yorug‘lik instalyatsiyasini taqdim etdi.

G‘or ichini eslatuvchi yo‘laklar, fazoviy yulduz turkumlari, ularning sirli, nozik nurlari va qadimgi tosh rasmlari sirlarini so‘zlovchi tasvirlar bilan to‘ldirildi. Bu yerda siz yovvoyi hayotning sahnalarini ko‘rishingiz mumkin: uchib yuruvchi yirtqich qushlar, kiyikka o‘xshash jonzotlar, labirintda yo‘qolgan inson qiyofasi va hk.










Mazkur instalyatsiya qadimgi davrlar ibtidoiy energiyasi va kelajakning neon ramzlarini oʻzida birlashtiradi

Yorug'lik va shakl birgalikda, yaxlit badiiy tasvirni – g'oyaviy instalyatsiyani yaratadi va u og'zaki ravishda emas, balki psixologik jihatdan seziladi.

Suratda-Toshkentdagi xalqaro zamonaviy san'at biyennalesi uchun M.R. Borodina tomonidan tayyorlangan “Nurning materializatsiyasi” nomli yorug'lik instalyatsiyasi. 2007 y.







“To‘lqin”

Kontseptsiyaning g'oyasi kutilmagan tarzda, kichik zarradan ulkan narsa paydo bo'lishini ifodalaydi. Ushbu shisha to‘lqin kichik bir toshning ko'lmakka tushishidan paydo bo'lganday go‘yo. Barcha instalyatsiyalar har doim ramziy belgilar orqali gapiradi.





Suratda TAQI talabalarining “Shahar kuzda” mavzusidagi instalyatsiya.

Kuz – vaqt, vaqt va trubaning shakli esa ma'no jihatdan o‘xshash.

Bunda shahar sariq nur bilan yoritilgan mavhum geometrik shakllar orqali tanib olinadi.



“Interyer va landshaft dizayni” kafedrasi talabalari tomonidan xalqaro tanlovga taqdim etilgan “Neft taraqqiyoti” nomli instalyatsiyada, neft jilg’alarining insonlar tana va ruhlarini egallayotgani aks ettirilgan.

Instalyatsiya Gran-Pri sohibi bo‘lgan.





Suratda: O'zbekiston milliy bankining badiiy galereyasida, TAQI "Interyer va landshaft dizayni" kafedrasini talabalarining badiiy installatsiyalari ko'rgazmasi.



Instalyatsiya mavzusi uning mohiyatini bevosita aks ettirmasligi ham mumkin. Masalan "Kushon motivi" instalyatsiyasi bizni qum tepaliklar va epigrafik yozuvlarning sirli qa'riga olib boradi.

Mirpulatova Munis yaratgan instalyatsiya L.I. Rempel va M.S. Bulatov tomonidan topilgan, Jizzax yaqinida joylashgan, kunlar, oylar, fasllar almashinuvi bilan samoviy kamarning ramziy ko‘rinishini ifodalovchi "Sak taqvimi" kompleksini tasvirlaydi. Instalyatsiya atrofini Kushon davridagi shaxslarning portretlari, sulolalar va sivilizatsiyalar ramziy ma'noda o‘rab turibdi.







Mirpulatova Munisning “Qora va oq tushlar” grafik instalyatsiyasi. Unda mavhum ramzlar naqshlarning yashirin ma'nosini, chodirsimon shakllar va ularning ostidagi beshiklar esa uyni anglatadi.



Salimov G'ayratning "Mening bolaligim ko'chalari" grafik instalyatsiyasi. Grafika shaffof polietilenning 3 ta qatlamida bajarilgan, bu katta, yuqori darajali g'urur hissini yaratdi.

Old plandagi, simlardan tayyorlangan shakllar go'yoki tasvirdan tushib kelganday.



Mavzu bo'yicha topshiriq.

1. “Ertangi prognoz”
2. “Insonlar sayyorasi” mavzulari bo'yicha parkda o'rnatish mumkin bo'lgan instalyatsiyaning grafik kontseptsiyasini bajarish.

Mavzu bo'yicha adabiyot

L.N. Хромов “Хромов Л.Н. “Reklama faoliyati: san'at, nazariya, amaliyot”,
Петрозаводск АО “Фолиум”, 1994.